

YODNOMALAR ADABIY-TARIXIY VA BIOGRAFIK MANBA SIFATIDA

Qaimjonova Mohidil Dilmurod qizi

*4-kurs Bakalavr, Ona tili va adabiyot ta'limi fakulteti,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, O'zbekiston*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yodnoma janrining o'ziga xos xususiyatlari, tarixiy takomillashuvi uning adabiy-tarixiy manba sifatidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, yodnomalarning ijodkor shaxsi, davr muhiti hamda adabiy jarayonni o'rganishdagi o'rni yoritiladi. XX asr o'zbek adabiyotida yaratilgan yodnomalar misolida mazkur janrning ilmiy va badiiy qimmati ochib beriladi.*

Kalit so'zlar: *yodnoma, memuar, siyar (siyrat), manaqib (holot), , tazkira, adabiy manbashunoslik, tarixiy manba, adabiy muhit, ijodkor shaxsi, tarixiy takomillashuv.*

Аннотация: *В данной статье анализируются специфические особенности жанра йоднома (мемуарной литературы), его историческая эволюция и значение как литературно-исторического источника. Также освещается роль йоднома в изучении личности творца, общественно-культурной среды эпохи и литературного процесса. На примере произведений мемуарного характера, созданных в узбекской литературе XX века, раскрывается научная и художественная ценность данного жанра.*

Ключевые слова: *йоднома, мемуары, сийар (сират), манакыб (холат), тазкира, литературное источниковедение, исторический источник, литературная среда, личность творца, историческая эволюция.*

Abstract: *This article analyzes the distinctive features of the yodnoma (memoir) genre, its historical evolution, and its significance as a literary-historical source. It also examines the role of memoir literature in studying the personality of writers, the socio-cultural environment of a particular period, and the literary process. Using examples from memoir works created in twentieth-century Uzbek literature, the article reveals the scholarly and artistic value of this genre.*

Keywords: *yodnoma, memoir, siyar (sirah), manaqib (hagiographical narratives), tazkira, literary source studies, historical source, literary environment, authorial personality, historical evolution.*

Insoniyat tarixiy taraqqiyoti davomida har bir zamon ijodkorlari o'z davri dunyoqarashi, voqelikni idrok qilish tushunish salohiyati, ta'bi, didi, ma'naviy ravnaqi ehiyojlari, davr imkoniyatlaridan kelib chiqib turli adabiy janrlarda badiiy mushohada yuritgan. Har qaysi iste'dod sohibi voqelikni o'z g'oyaviy niyati, intilishlari, ma'naviy – ruhiy olami talablari

nuqtai nazaridan o‘ziga ma’qul va manzur shaklda badiiy aks attirgan. Shu ma’noda adabiy janrlarning shakllanishi va taraqqiyoti ijod jarayonining xos qonuniyatlari bilan birga tarixiy hayot, ijodkor yashayotgan ijtimoiy-siyosiy voqelik va ilohiy-irfoniy g‘oyalar zaminida tug‘ilgan teran tafakkur bilan bevosita aloqadordir. Adabiyot tarixiga nazar soladigan bo‘lsak, biror shaxs – hukmdor, sarkarda, adib yoki aziz zotlarning hayoti va faoliyatiga bag‘ishlab bir qancha asarlar yozilganini ko‘rish mumkin. Bunday asarlarda mazkur kishilarning avtobiografik ma’lumotlaridan tortib ularning shaxsiy fazilatlari, amalga oshirgan ezgu ishlari haqida so‘z yuritiladi. Bu turdagi asarlar davrlar o‘tib (adabiy an‘analarning o‘zgarishi, adabiy ta’sirlar natijasida) turli nomlar bilan atalgan. Chunonchi, siyar (siyrat), manoqib (holot), tazkira, esdalik, xotira, memuar (memuar-biografik, biografik-badiiy asar, memuar-xotira) kabilar shular jumlasidandir.

Dunyo tarixiga nazar tashlansa, insoniyat yozuvni kashf qilgan kundan boshlab o‘zi va olam haqidagi mulohazalari, orzu-istaklarini, qandaydir voqea va kishilar xususidagi xotiralarini bitishni boshlagan. Turli mintaqalarda tog‘- u toshlar, devorlar, dahma va sag‘analarga bitilgan hamda hozirgacha saqlanib qolgan bitiklarni qaysidir ma’noda insoniyatning kelajak avlodga qoldirgan esdaliklari, yodnomalari deyish mumkin. Har qanday xalqning adabiy va madaniy taraqqiyotini o‘rganishda tarixiy hujjatlar, arxiv materiallari, maktublar, kundaliklar va yodnomalar muhim manba vazifasini bajaradi. Ayniqsa, yodnoma janri tarixiy voqelikni shaxsiy xotiralar orqali aks ettirishi bilan boshqa manbalardan farqlanadi. Keyinchalik yozuvning takomillashuvi, falsafa fanining taraqqiy etishi natijasida tarix va adabiyot sohalarining paydo bo‘lishi hamda rivojlanishi sababli bir qancha tarixchi va adiblarlar yetishib chiqdi. Kishilik jamiyati, davlatchilik qonuniyatlari shakllanar ekan, jamoa boshliqlari – sarkardalar, hukmdorlar, faylasuflar, xalq ichidan chiqqan qahramonlarning so‘zlari, amaliy faoliyatlari qayd etib borilgan. Bora-bora mazkur shaxslarga bag‘ishlangan maxsus asarlar yoziladi. Chunonchi, Misr fir’avnlari, Yuliy Sezar, Spartak, Pompey, Aleksandr Makedoniskiy, Janna D’ark, qirol Artur, Uilyam Vols kabi tarixiy shaxslar haqida Geradot, Arrian, Gerrodian, Kvint Kursiy Ruf, Tit Liviy, Plutarx, Yustin kabi tarixchi va adiblar o‘z yodnoma-esdalik asarlar yaratishgan. Islom dinining muqaddas kitobi bo‘lmish Qur’oni karim bizga dunyoning yaratilishidan boshlab Payg‘ambarimiz (s.a.v.) davrigacha yashab o‘tgan qavmlar, ularning payg‘ambarlari haqida qimmatli ma’lumotlarni zikr etadi, eslatadi. Qur’onning mazmuniga e’tibor qaratisa, mazkur kitob, qaysidir ma’noda, insoniyat tarixidan xabar beradi, ularning yashash tarzi, tutumlari, qilgan ishlari sabablari hamda oqibatlaridan so‘z yuritadi. Shu boisdan, ushbu muqaddas kitobning juda ko‘p o‘rinlarida zikr qilingan voqea-hodisalarga ishora qilinib, “Bu bir eslatma (kitob)dir” degan mazmunda marhamat qilinadi.

Qadimgi turkiy tillarda yaratilgan yodgorliklardan bizgacha O‘rxun-Enosoy va uyg‘ur yozuvidagi yodgorliklar saqlanib qolgan. O‘rxun-Enasoy yodgorliklari V-VII asrlarga mansub bo‘lib, ulardan Kul-Tegin, Bilka-Qoon, To‘nyuquq qabr toshlariga o‘yib yozilganligi ahamiyatlidir. Bu yozuvlar yodnomalarning eng qadimgi namunasi sifatida e‘tirof etiladi. Mazkur yodnoma qadimgi turk davriga oid qog‘ozga yozilgan yagona yodgorlikdir. Irq bitigi Isig Sangun va Ite chuq nomli moniy jamoasidagi ikki bola uchun yozilgan.

Payg‘ambarimiz vafotidan keyin u zotning hayoti va faoliyatlari, shamoyil hamda fazilatlarini haqida maxsus kitoblar yozila boshlangan. Unda Muhammad alayhissalomning tug‘ilishlaridan boshlab butun faoliyatlari – bolalik chog‘lari, payg‘ambar bo‘lishlari, g‘azotlari, ummatlari bilan bog‘liq voqealar, nihoyat vafotlari bilan bog‘liq hodisalar bayon etiladi. Lug‘atlarda “tug‘ma fe‘l-atvor”, “xulq”, “shakl”, “surat”, “ko‘rinish” kabi ma‘nolarni anglatadigan “shamoyil”, shuningdek, “odat”, “xislat”, “xulq-atvor”, “tabiat”, “raftor” angamlarida keluvchi “siyrat” (yoki “siyar”) deb atalgan so‘zlar keyinchalik Payg‘ambar alayhissalom haqida yoziladigan yodnoma kitoblar uchun maxsus nom sifatida iste‘foda etila boshlandi.

Islom olamida ilk siyrat bitiklari sifatida Abdul Malik ibn Hishomning “As-siyratun nabaviya”, Ibn Hibbonning “As-siyratin nabaviya va axborul xulafu”, Ibn Sa‘dning “At-tabaqotul kubro”, Zahabiyning “As-siyratun nabaviya”, Ali ibn Burhoniddin Halabiyning “Insonul u‘yun fi siyratil Aminil ma‘mun” kitoblari tan olinadi. “Shamoyil” tipidagi asarlar sirasiga, asosan, bir payg‘ambar bilan bog‘liq bo‘lgan asarlar kiradi. Sharqda Muhammad alayhissalom ga bag‘ishlangan asarlar (“Shamoyili Muhammadiy”) mashhur bo‘lsa, “G‘arbda Iso (Iisus Xristos) alayhissalomga bag‘ishlangan manbalar keng tarqalgan”⁹⁶. Shamoyil tipidagi asarlar uchun “Qisas ul-anbiyo” singari asarlar asos vazifasini bajargan.

Arab adabiyotida VII –IX asrlarda shakllangan, “shamoyil”, “siyra” atamallari bilan yuritilgan ilohiy pandnomalar keyingi yuz yillillarda turlicha nomlar bilan atalib kelingan.. Shulardan biri “maqom” bo‘lib, u lug‘at va adabiyotshunoslik asarlarida turlicha ko‘rinishda o‘z aksini topgan. Sharq agiografiyasi katta qamrovga ega bo‘lgani sababli, asarlar bir-biriga ma‘no jihatidan o‘xshab ketsa ham o‘zaro farqlanadi. Masalan, manoqibga o‘xshash bo‘lgan janrlar ham mavjud bo‘lib, ular "Maqomotlar" deb yuritiladi. “Maqom” arabcha so‘z bo‘lib, “joy”, “o‘rin”, “mavqe”, “daraja”, “martaba”; musiqada har bir ohangning nomini bildiradi. “Maqom”ning ko‘pligi “maqomot” va u adabiy tushuncha vazifasida “Odamlar guruhiga o‘qiladigan rivoyat yoki hikoyatlar”ni anglatadi.

Sharq agiografiyasining yana bir janri manoqiblar hisoblanadi. “Manoqib” atamasi “Fazilatlar” ma‘nosida ishlatilib, bunda “biror alloma yoki buyuk shaxsning fazl va

⁹⁶ Saydolimov J. Musulmon agiografiyasining o‘ziga xos belgilari // Qo‘qon universiteti xabarnomasi. – Qo‘qon, 2024. – №13, B. 263.

martabasini maqtab, u haqdagi ibratli hikoyalarni bayon qilish tushuniladi”⁹⁷. Manaqib atamasiga “Alisher Navoiy asarlari lug‘ati” ham ta’rif berilgan: “Manoqib (ar. madh-u ta’rifga munosib ezgu ishlar, go‘zal sifatlar) – mashhur din va tasavvuf ahlining hayoti, faoliyati, favqulodda xususiyatlar, namunali xulqini yod etib yozilgan asar”⁹⁸. “G‘iyos ul-lug‘ot” sharhiga ko‘ra “manaqib” – “yaxshi, ma’qul sifatlar”, “manqabat” – “hunar va maqtov”⁹⁹ ma’nosiga ega. Qadimda o‘tgan avliyo, so‘fiy, shayx-mashoyixlarning ibratli hayoti manoqiblarda aks etadi. Ko‘p hollarda manoqiblarda zikr etilgan shaxslar xalq kitoblariga ko‘chib, pahlavon, zohid, darvesh sifatida gavdalantiriladi. Rasuli Akramning (s.a.v.) quyidagi hadislarini manoqib janrining yuzaga kelishi va shakllanishida ma’naviy zamin vazifasini bajargan: “Haq taolo do‘stlarimni butun insonlarga fazilatli qilib yaratgan. Bu do‘stlarim ichida to‘rt kishi – Abu Bakr, Umar, Usmon va Alining fazilatlarini yuqori etdi. Ularning do‘stlarimning eng yaxshisi qildi”. Shu sababli bo‘lsa kerak, Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy tomonidan 1436–1437-yillarda turkiy tilda yaratilgan ilk nazariy qo‘llanma – “Funun ul-balog‘a”da bu atama haqida quyidagilarni o‘qimiz: “Va xulafoyi roshidiynni ta’rif qilsalar, manoqib va manqabat derlar”¹⁰⁰. XV asr o‘zbek adabiyotida manoqibchilik an’anasining ijobiy fazilatlarini Alisher Navoiyning “Hamsat ul-mutahayyirin”, “Holoti Sayyid Hasan Ardasher”, “Holoti Pahlavon Muhammad” asarlarida ko‘rish mumkin. Akademik B.Valixo‘jayev bu uch asarning janrini “manoqib-holot” deb belgilar ekan, manoqib-holotni adabiyotshunoslik va adabiy tanqidning bevosita janrlari sirasiga kiritadi¹⁰¹. Navoiyshunos olimi S.G‘aniyevaning qat’iy xulosasiga ko‘ra esa, bu uchala asarni “memuar-biografik janrning yorqin namunalari”¹⁰² deyish mumkin. Mazkur asarlarda Abdurahmon Jomiy, Sayyid Hasan Ardasher, Pahlavon Muhammad tarjimai holi va ijodiga doir qimmatli ma’lumotlar aks ettirilgan va ularda muallif tarjimai holiga oid esdaliklar ham muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, bu uchala asarda adabiy tanqid, XV asrdagi adabiy-madaniy muhit, o‘zbek va tojik adabiy aloqalariga oid tuli xil kuzatishlar mavjud. Tilshunos alloma Muhammad G‘iyosiddin “holot”ni alohida olingan bir ulug‘ shaxsning ahvolini, sarguzashtlarini ifodalovchi asar sifatida talqin etadi¹⁰³. Adabiy ijod, obrazlar tasviri doirasida manoqibning mavzu ko‘lami kengayib borgan. Arab adabiyotidagi manoqibchilik musulmon mintaqa xalqlari badiiy so‘z san‘atiga kuchli ta’sir ko‘rsatgan va ularda shunga o‘xshash asarlar paydo bo‘lishiga zamin hozirlagan. Payg‘ambar (s.a.v.), u zotning ahli bayti,

⁹⁷ Islom ensiklopediyasi. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2004. 122-b

⁹⁸ Navoiy asarlari lug‘ati. –Toshkent: Adabiyot va san‘at, 1972. 156-b

⁹⁹ Muhammad G‘iyosiddin. G‘iyos-ul-lug‘ot. Jildi 2. – Dushanbe: Adib, 1988. 29-b

¹⁰⁰ Taroziy Shayx Ahmad Xudoydod. Funun ul-balog‘a. O‘zbek tili va adabiyoti. 2002. 24-b

¹⁰¹ Valixo‘jayev B. O‘zbek adabiyotshunosligi tarixi. X–XIX asrlar. – Toshkent: O‘zbekiston, 1983. 26-b

¹⁰² O‘zbek adabiyoti tarixi. Besh tomlik, 2-tom. – Toshkent: Fan, 1997. 256-b

¹⁰³ Muhammad G‘iyosiddin. G‘iyos-ul-lug‘ot. Jildi 2. – Dushanbe: Adib, 1988. 29-b

sahobalari-yu xalifalari vasfiga bag‘ishlangan bunday badiiy yaratmalar fors-tojik va turkiy adabiyotda “qissa” istilohi bilan keng tarqaldi. “Muhammad alayhissalom qissasi”, “Qissayi shahzoda Hasan”, “Qissayi shahzoda Husayn” shunday tarixiy-badiiy yodgorliklar sirasiga kiradi.

IX asrda vujudga kelgan tazkirachilik o‘ziga xos taraqqiyot bosqichlarini kechib o‘tdi. Vaqt o‘tishi bilan to‘plamlarga ijodkorlarning namunalari ko‘proq kirib boradi, shuning natijasida ularning hayoti va faoliyati haqida ma’lumot berish, asarlari haqida mulohaza yuritish zaruriyati tug‘iladi. Mana shu zaylda vujudga kelgan to‘plamlar ilk tazkiralari edi. Bizga qadar saqlanib qolgan eng qadimgi tazkiralardan biri XIII asrning birinchi choragida Muhammad Avfiy (asli buxorolik bo‘lib, keyin Hindistonda turib qolgan) tomonidan yaratilgan “Lubob ul-albob” (“O‘zaklarning o‘zagi”) tazkirasidir¹⁰⁴. XV asr tazkirachilik taraqqiyotida alohida bir bosqich bo‘ldi. Bu davrda bevosita tazkira sifatida ikki asar yaratildi: “Tazkirat ush-shuaro” (Davlatshoh Samarqandiy) va “Majolis un-nafois” (Alisher Navoiy). Shu bilan birga, tazkirachilikning taraqqiyotida Abdurahmon Jomiyning “Bahoriston” asari ham katta ahamiyatga egadir. Chunki “Bahoriston”ning 7-ravzasi (bobi) tazkira xarakteridadir. Tazkirat ush-shuaro” X–XV asrlarda yashab ijod etgan fors-tojik tilidagi poeziya namoyandalariga bag‘ishlanadi. Navoiyning “Majolis un-nafois” asari birinchi o‘zbek tazkirasini bo‘lib, u XV asr adabiyoti namoyandalariga bag‘ishlangan. 450 dan ziyod ijodkorni qamrab olgan bu tazkira aniq ma’lumotlarga boyligi va adabiy-tanqidiy mulohazalari jihatidan boshqa tazkiralardan yuqori turadi.

Memuarlar (fr. “memoires” – “xotiralar”) – esdaliklar, yodnomalar. Odatda yozuvchining o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan yoki o‘zi qatnashgan o‘tmish voqealar to‘g‘risida yozganlari memuarlar mazmunini tashkil etadi. Memuar asarlar hajmi, hayotni qamrash ko‘lami, uslubiy xususiyatlari kabi qator jihatlari bilan bir-biridan farq qiladi: ayrim memuar asarlar xronologik jihatdan cheklangan (masalan: N.Muhitdinovning “Kremla o‘tgan kunlarim”) bo‘lsa, boshqalari muallif ongli hayotini to‘la qamrab oladi. Bunday memuar asarlarga K.Goldoninning “Memuarlar” va I.Gyotening “Poeziya va haqiqat”, V.Korolenkonning “Zamondoshlarim tarixi” kabi asarlarni kiritish mumkin. O‘zbek adabiyotida ham memuar adabiyotning namunalari mavjud. Masalan, Zahiriddin Muahammad Boburning “Boburnoma”, Sadriddin Ayniyning “Esdaliklar”i kabilar. Bobur o‘z memuarlarida Movarounnahr, Xuroson va Hindistonda ko‘rgan va eshitganlarini o‘z sarguzashtlari shaklida naql qiladi. Binobarin, kitobxon butun asar davomida o‘z sarguzashtlari va ajoyib hayoti bilan zamonasining voqeligini aks ettirgan tarixiy shaxs – Bobur obrazini ko‘z oldiga keltiradi. “Shayboniynoma” Shayboniynoma xonga bag‘ishlangan doston bo‘lib, uning temuriylarga qarshi

¹⁰⁴ Saydolimov J. Musulmon agiografiyasining o‘ziga xos belgilari // Qo‘qon universiteti xabarnomasi. – Qo‘qon, 2024. – №13, B. 265.

olib borgan urush va yurishlarini tasvirlaydi. muallif turkiy xalqlarning qadim zamonlardan boshlab Shayboniy vafotiga qadar bo‘lgan tarixi haqida so‘zlaydi. Ammo asarning dastlabki qismlarida tarixiy voqealar emas, balki afsona va rivoyatlar hikoya qilinadi. Asar syujet jihatidan yodnoma asar hisoblanadi¹⁰⁵.

XX asr o‘zbek adabiyoti ulkan yo‘qotishlar (ayniqsa, 1930-yillardagi qatag‘on davri) va buyuk siymolar asri bo‘ldi. Shuning uchun ham keyingi avlod vakillari o‘z ustozlari, safdoshlari va millat fidoyilarini yod etib, ularning xotirasiga bag‘ishlangan ko‘plab asarlar yaratishgan. Chunonchi, atoqli adib Oybek “Xotiralar” nomli yodnomasida ustoz Cho‘lpon bilan uchrashuvlari, suhbatlari va uning hibsga olinishidan oldingi og‘ir kunlarini tasvirlagan. Habibulla Qodiriyning “Otam haqida” xotira-qissasi o‘zbek biografik memuarligida o‘z o‘rniga ega yodnoma asar hisoblanadi. Unda muallif otasi Abdulla Qodiriyning hayoti va faoliyati xususida atroflicha so‘z yuritadi. Adiba Olmos G‘ulomova o‘zining “Sharafli yo‘l” yodnomasida otasi G‘afur G‘ulomning hayot yo‘li, u shaxsiyatidagi o‘ziga xos fazilarlar, farzandlar tarbiyasiga bo‘lgan e‘tibori borasida iliq xotiralar bayon etadi. Kimyogar olim Kibriyo Qahhorova “Chorak asr hamnafas” xotiralar kitobida turmush o‘rtog‘i Abdulla Qahhorning shaxsiyatidan ko‘ra ijodkorlik fazilatlarini ulug‘lagan bo‘lsa, Zarifa Saidnosirova “Oybegim mening” yodnomasida adibning xastalik yillaridagi matonati, ijodiy izlanishlari ayol va sadoqatli safdosh nigohi orqali qog‘ozga tushirilgan. Xulosa qilib aytganda, yodnomalar insoniyatning tarixiy xotirasini saqlovchi muhim adabiy-tarixiy manbalar sifatida qadim davrlardan boshlab shakllanib, turli davr va xalqlar adabiyotida o‘ziga xos taraqqiyot bosqichlarini bosib o‘tgan. Siyrat, shamoyil, maqomot, manoqib, tazkira va memuar kabi janrlar yodnomachilik an‘analarining turli ko‘rinishlari bo‘lib, ular orqali tarixiy shaxslar hayoti, davr voqealari hamda ma‘naviy-madaniy muhit haqida qimmatli ma‘lumotlar avlodlarga yetkazilgan. Mazkur asarlar nafaqat badiiy-estetik ahamiyatga, balki tarixiy, biografik va manbashunoslik qiymatiga ham ega bo‘lib, o‘tmishni o‘rganishda ishonchli manbalardan biri sifatida muhim o‘rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Saydolimov J. Musulmon agiografiyasining o'ziga xos belgilari // Qo‘qon universiteti xabarnomasi. – Qo‘qon, 2024. – №13, B. 263.
2. Islom ensiklopediyasi. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2004. – 122 b
3. Navoiy asarlari lug‘ati. –Toshkent: Adabiyot va san‘at, 1972. – 156 b

¹⁰⁵ Mallayev N. O‘zbek adabiyoti tarixi. –Toshkent: Kafolat print company, 2021. 232-b

4. Muhammad G‘iyosiddin. G‘iyos-ul-lug‘ot. Jildi 2. – Dushanbe: Adib, 1988. – 52 b
5. Taroziy Shayx Ahmad Xudoydod. Funun ul-balog‘a. O‘zbek tili va adabiyoti. 2002. – 242 b
6. Valixo‘jayev B. O‘zbek adabiyotshunosligi tarixi. X–XIX asrlar.– Toshkent: O‘zbekiston, 1983. – 98 b
7. O‘zbek adabiyoti tarixi. Besh tomlik, 2-tom. – Toshkent: Fan, 1997. – 256 b
8. Muhammad G‘iyosiddin. G‘iyos-ul-lug‘ot. Jildi 2. – Dushanbe: Adib, 1988. – 52 b
9. Saydolimov J. Musulmon agiografiyasining o'ziga xos belgilari // Qo‘qon universiteti xabarnomasi. – Qo‘qon, 2024. – №13, B. 265
10. Mallayev N. O‘zbek adabiyoti tarixi. –Toshkent: Kafolat print company, 2021. – 545 b